



**XALQARO ATROF – MUHIT HUQUQI TUSHUNCHASI VA  
MANBALARI**

*Saitkulova Dildora Anvarjon qizi*

*Toshkent Davlat Transport Universiteti*

*Yurisprudensiya yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

[d61887142@gmail.com](mailto:d61887142@gmail.com)

**ANNOTATSIYA:** Ushbu maqolada xalqaro atrof-muhit huquqi, xalqaro miqyosda mavjud ekologik qonunlar, prinsiplar hamda xalqaro-huquqiy normalar haqida so'z boradi. Atrof-muhit tushunchasi global tushuncha hisoblanib, xalqaro miqyosda tartibga solinishi, asrab avaylanishi va kelajak avlod manfaatlarini inobatga olgan holda qulay tabiiy sharoitni ta'minlab berish lozimligini yoritadi.

**KALIT SO'ZLARI:** Xalqaro atrof-muhit huquqi, BMT Bosh Assambleyasi, konvensiya, kelishuv, bitimlar, manbalar, ratifikatsiya qilish, qonunlar, ekologik xavfsizlik, atrof-muhit muhofazasi.

**АННОТАЦИЯ:** В данной статье рассматриваются международное экологическое право, существующие на международном уровне экологические законы, принципы и международно-правовые нормы. Понятие окружающей среды является глобальным, освещается необходимость ее регулирования, охраны и обеспечения благоприятных природных условий с учётом интересов будущих поколений на международном уровне.

**КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:** Международное экологическое право, Генеральная Ассамблея ООН, конвенция, соглашение, договоры, источники, ратификация, законы, экологическая безопасность, охрана окружающей среды.

**ANNOTATION:** This article discusses international environmental law, environmental laws, principles, and international legal norms existing at the international level. The concept of the environment is global, highlighting the



necessity of its regulation, protection, and provision of favorable natural conditions on an international scale, taking into account the interests of future generations.

**KEY WORDS:** International environmental law, UN General Assembly, convention, agreement, treaties, sources, ratification, laws, environmental security, environmental protection.

## KIRISH

Xalqaro atrof-muhit huquqi — bu davlatlar o'rtasidagi munosabatlarni, shuningdek, atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiatdan foydalanish va tabiiy resurslarni taqsimlashga qaratilgan xalqaro va milliy huquqiy normalar majmuidir. Bu, shuningdek, xalqaro huquqning bir sohasi bo'lib, u atrof-muhitni himoya qilishga qaratilgan xalqaro shartnomalar, konvensiyalar, kelishuvlar va boshqa huquqiy hujjatlarni o'z ichiga oladi.

Tarixan nazar tashlaydigan bo'lsak, atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan foydalanish sohasidagi xalqaro munosabatlarni huquqiy tartibga solish avvalo ikki tomonlama davlatlararo o'zaro kelishuv va bitimlar asosida rivojlana boshlangan. Bunga misol 1839-yil 2-avgustda qabul qilingan Buyuk Britaniya va Fransiya sohillarida baliq va dengiz molyuskalarini ovlash to'g'risidagi konvensiya hisoblanadi. Shuningdek, ushbu sohada ilk marotaba ko'p tomonlama munosabatlarni tartibga soluvchi hujjat 1868-yilda qabul qilingan Reyn kemachiligi to'g'risidagi Konvensiya bo'lib, ushbu hujjat asosida Reyn daryosi suvlarini ifloslanishidan muhofaza qilish talablarini o'z ichiga oladi. Hozirgi kunga kelib dunyo miqyosida atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan foydalanishni tartibga solish sohasida ko'p tomonlama universal va regional xalqaro konvensiyalar 1600 tani hamda ikki tomonlama o'zaro hamkorlik to'g'risidagi shartnomalar 3 mingdan ortig'ini tashkil etadi<sup>1</sup>.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi hozirgi paytda atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni tartibga solish sohasidagi xalqaro konvensiya, bayonnoma va asosiy kelishuvlarning bir

<sup>1</sup> Xalqaro ommaviy huquq: darslik / A.X. Saidov va boshqalar. – T. TDYU nashiyoti, 2023, - 650 b



nechtasining ishtirokchisi hisoblanadi. Ushbu sohada o'zaro hamkorlik masalalariga bag'ishlangan kelishuvlarni barcha Markaziy Osiyo davlatlari, qolaversa, Yevropa mamlakatlari bilan ham imzolanganligi mamlakatimizda ekologik masalalarga alohida e'tibor qaratilayotganligidan dalolat beradi.

O'zbekiston xalqaro ekologik shartnomalarga keng miqyosda ishtirok etib, tabiatni muhofaza qilish va atrof-muhit barqarorligini ta'minlash yo'lida muhim qadamlar tashlamoqda. Hozirgi kunga kelib O'zbekiston 20 dan ortiq asosiy global va mintaqaviy ekologik shartnomalarga qo'shilgan. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2023 yilga kelib mamlakat iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish uchun 15 ta maxsus loyihalarni amalga oshirishda qatnashgan, bu esa ekologik barqarorlikni oshirishga ko'maklashmoqda<sup>2</sup>. Shu bilan birga, iqlim o'zgarishiga qarshi milliy strategiyalar ishlab chiqilib, Yevropaning ekologik tajribalaridan foydalaniladi. Bular O'zbekistonning global ekologik jarayonlarga faol jalb qilinishini ko'rsatadi va ekologik siyosatni rivojlantirishda muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

Bundan tashqari, 1982-yil 28-oktabrda BMT Bosh Assambleyasi 37-sessiyasida qabul qilingan Umumjahon tabiatni muhofaza qilish xartiyasida xalqaro ekologik huquqning 24 ta prinsipi qabul qilingan bo'lib, unga ko'ra, BMTga a'zo mamlakatlar o'zining milliy ekologik qonunlarini ularga moslashtirishlari lozimligi mustahkamlangan. Bu borada O'zbekiston Respublikasining "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonunining 4-moddasiga muvofiq: fuqarolarning hayoti uchun qulay tabiiy muhitga ega bo'lish huquqini ta'minlash, tabiatni muhofaza qilish sohasida milliy, regional va xalqaro manfaatlarni uyg'unlashtirish; insonning yashash muhiti bo'lmish biosfera va ekologik tizimlarning barqarorligini saqlab qolish prinsiplari yuqorida qayd etilgan tabiat xartiyasida mustahkamlangan xalqaro qoidalarga mosdir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 17-18-moddalariga binoan, O'zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarni to'la huquqli subyekti

---

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish qo'mitasi, "2023-yil ekologik faoliyat hisobotlari," Toshkent, 2024



hisoblanadi<sup>3</sup>. Uning tashqi siyosati xalqaro huquqda umum e'tirof etilgan qoida va normalarga asoslanadi. Tabiatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonunning 53-moddasida O'zbekiston Respublikasi tuzgan xalqaro shartnomada milliy ekologik huquq me'yorlaridan o'zga qoidalar belgilangan bo'lsa, mamlakatimizda xalqaro shartnoma qoidalari qo'llanadi deb belgilangan, ya'ni ularning ustuvorligi e'tirof etilgan.

O'zbekiston Respublikasi atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida qator xalqaro konvensiya va tegishli bayonnomalarga a'zo bo'ldi hamda ratifikatsiya qildi.

Jumladan:

- 1) Ozon qatlamini muhofaza qilish to'g'risidagi Vena konvensiyasi (18.05.1993-y);
- 2) Ozon qatlamini yemiruvchi moddalar bo'yicha Monreal Bayonnomasi (18.05.1993-y.);
- 3) Ozon qatlamini yemiruvchi moddalar bo'yicha Monreal bayonnomasiga London tuzatmalari (01.05.1998-y.);
- 4) Ozon qatlamini yemiruvchi moddalar bo'yicha Monreal bayonnomasiga Kopengagen tuzatmalari (01.05.1998-y.);
- 5) Transchegaraviy ochiq suv oqimlari va xalqaro ko'llarni muhofaza qilish hamda foydalanish bo'yicha BMT Yevropa iqtisodiyoti komissiyasining konvensiyasi;
- 6) Tabiiy muhitga harbiy yoki har qanday tajovuzkorona ta'sir vositalaridan foydalanishni taqiqlash to'g'risidagi konvensiya (26.05.1993-y.);
- 7) Iqlim o'zgarishi to'g'risidagi konvensiya (20.06.1993-y.) Ushbu konvensiyaga Kioto bayonnomasi (1999-y.);
- 8) Cho'llanishga qarshi kurashish bo'yicha konvensiya (31.08.1995-y.);
- 9) Xavfli chiqindilarni transchegaraviy olib chiqish va ularni yo'qotishni nazorat qilish bo'yicha Bazel konvensiyasi (22.12.1995-y);
- 10) Biologik xilma-xillik to'g'risidagi konvensiya (06.05.1995-y);

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – O'zbekiston Respublikasi, 2023



- 11) Umumjahon madaniy va tabiiy merosni muhofaza qilish to'g'risidagi konvensiya (22.12.1995-y.);
- 12) Yo'qolib ketish xavfi ostida bo'lgan yovvoyi fauna va flora turlari bilan xalqaro savdo qilish to'g'risidagi konvensiya (01.07.1997-y);
- 13) Yovvoyi hayvonlarning ko'chib yuruvchi turlarini muhofaza qilish to'g'risidagi konvensiya (01.05.1998-y.);
- 14) Afrika va Yevroosiyo ko'chib yuruvchi suvli-botqoqli hududlar qushlarini muhofaza qilish bo'yicha kelishuv (AEWA);
- 15) Xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan asosan suvda suzuvchi qushlar yashash joylari hisoblangan suv-botqoqli hududlar to'g'risidagi Ramsar konvensiyasi (30.08.2001 y);
- 16) Ishlatib bo'lingan yoqilg'i bilan muomalada bo'lish xavfsizligi to'g'risidagi va radioaktiv chiqindilar bilan muomalada bo'lish xavfsizligi haqidagi Birlashgan konvensiya (Vena, 1997-yil 5-sentabr) 11.12.2008-y;
- 17) Biologik xilma-xillik haqidagi konvensiyaning bioxavfsizlik bo'yicha Kartaxena protokoli (Monreal, 2000-yil 29-yanvar). 14.10.2019-y.;
- 18) O'simliklar karantini va himoyasi bo'yicha xalqaro konvensiya (Rim, 1951-yil 6-dekabr) 23.12.2019-y;
- 19) Turg'un organik ifloslantiruvchi moddalar haqidagi Stokholm konvensiyasi (Stokholm, 2001-yil 22-may) 08.05.2019-y.

## **XULOSA**

Xalqaro atrof-muhit huquqi tarixiy rivojlanishi davomida turli xalqaro konvensiyalar va shartnomalar orqali shakllangan bo'lib, ularning amaldagi roli juda katta – ular mamlakatlarni ekologik talablar va standartlarga rioya qilishga majbur qiladi, shuningdek, global va mintaqaviy muammolarni hal etishda integratsiyalashgan harakatlarni rag'batlantiradi<sup>4</sup>.

O'zbekiston o'zining ekologik siyosatini xalqaro majburiyatlarga muvofiq tarzda rivojlantirib, ko'plab muhim xalqaro konvensiyalarda faol ishtirok etmoqda.

<sup>4</sup> Mirzayev T., "Xalqaro atrof-muhit huquqi va uning rivojlanishi", Toshkent, 2022.



Bu konvensiyalar milliy qonunga kirib, atrof-muhitni muhofaza qilish choralari samaradorligini oshiradi, ekologik xavfsizlikni mustahkamlaydi va tabiatni saqlash sohasidagi hamkorlikni kuchaytiradi.

Shu bilan birga, xalqaro shartnomalar asosida O‘zbekiston ekologik barqaror rivojlanish, iqlim o‘zgarishiga qarshi kurash, suv va havo muhofazasi, tabiiy resurslarni boshqarish kabi yo‘nalishlarda amaliy chora-tadbirlarni joriy qilmoqda. Bu esa mamlakatning ekologik holatini yaxshilashga, jahon miqyosida atrof-muhitni himoya qilish maqsadlariga erishishga xizmat qiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – O‘zbekiston Respublikasi, 2023
2. Xalqaro ommaviy huquq: darslik / A.X. Saidov va boshqalar. – T. TDYU nashiryoti, 2023, - 952 b
3. O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish qo‘mitasi, 2024-yil hisobotlari.
4. Mirzayev T., “Xalqaro atrof-muhit huquqi va uning rivojlanishi”, Toshkent, 2022.
5. Atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida” qarori (2020 yil) — ekologik holatni yaxshilashga qaratilgan.
6. Shermatov, E. (2024). Atrof- muhitni muhofaza qilishda xalqaro standartlar tahlili. b zdit. (T. 3, Выпуск 2, сс. 37–40).
7. Karimov Sh., “Xalqaro va milliy ekologik qonunchilik”, Toshkent, 2023
8. Islomov B. “Tabiiy resurslarni boshqarish va ekologik xavfsizlik”, Toshkent, 2021.